

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2023- yil 28- dekabr
dagi
89-son buyrug‘iga
ILOVA

**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish
ishlari hajmini statistik baholash bo‘yicha
uslubiy nizom**

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik baholash bo‘yicha uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda – uslubiy nizom) qurilish faoliyatining statistik hisobini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o‘rinlarda-GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni tayyorlashda qurilish faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik hujjatlari, Milliy hisoblar tizimi 2008- yil ta’riflari va xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanildi.

Ushbu uslubiy nizom statistika organlari tomonidan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha statistika ma’lumotlarini shakllantirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPM ning qayta ishlash bosqichi doirasida ma’lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

2. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta’riflar qo‘llaniladi:

qurilish ishlari hajmi – to‘lov muddatidan qat‘iy nazar haqiqatda bajarilgan (ishlab chiqarilgan) hajm o‘lchamida aks ettiriladigan ishlar hajmi;

xo‘jalik usulida bajarilgan qurilish ishlari – o‘z ehtiyojlari uchun o‘z kuchlari bilan amalga oshirilgan, ya’ni qurilishni amalga oshirish uchun tashkilot tomonidan asosiy faoliyatdagi ishchilar jalb qilinib bajarilgan ishlar;

yangi qurilish – yangi quvvatlar yaratish maqsadida yangi maydonlarda amalga oshiriladigan, asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi obyektlar (bino va inshootlar) komplekslari qurilishidir;

rekonstruksiya – ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy darajasini oshirish bo‘yicha kompleks loyihalar bilan bog‘liq mavjud bino va inshootlarni kengaytirmasdan, mavjud sexlar va asosiy, yordamchi hamda xizmat ko‘rsatuvchi obyektlarni qayta qurish;

korxonani kengaytirish – ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida yangi qo‘shimcha sexlar qurish va boshqa bo‘linmalarni yaratishga mo‘ljallangan investitsiyalar;

modernizatsiyalash – ishlab chiqarish mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishning texnologik yangilanish jarayoni;

ishlab chiqarish – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo‘lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o‘zida aks ettiradi.

2-bob. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining statistik hisobi

3. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi tezkor ravishda oylik davriylikda statistik hisob-kitob qilinadi. Mazkur ma’lumotlar hisobot yili yakunlangandan so‘ng aniqlashtirilgan yillik hisobot ma’lumotlari asosida qayta hisoblanadi.

4. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmiga ular tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar kiritiladi.

5. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan turar-joy va noturar joy binolari hamda muhandislik inshootlarini yangi obyektlari qurilishi, kapital va joriy ta’mirlash, rekonstruksiya, kengaytirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha

asosiy, to'g'ridan-to'g'ri va subpudrat shartnomalari asosida bajarilgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining (keyingi o'rinlarda MST) 41-43- bo'limlari xos raqamlariga mos keluvchi qurilish-montaj ishlari hamda boshqa pudrat ishlari qiymatini aks ettiradi.

6. Bajarilgan qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

3- bob. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini hisoblashning ma'lumotlar manbalari

7. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi quyidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi:

- a) tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvallari;
- b) qurilishda foydalaniladigan asosiy qurilish materiallarini ishlab chiqarilishi ko'rsatkichlari;
- d) qurilishda foydalaniladigan asosiy qurilish materiallari eksporti va importi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- e) kichik korxona va mikrofirmalarning oxirgi aniqlashtirilgan yillik statistika hisoboti ma'lumotlari;
- f) mikrofirma va kichik korxona faoliyati tog'risidagi tanlanma kuzatuv ma'lumotlari.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ma'lumotlar asosida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmiga tuzatishlar kiritilishi mumkin.

4- bob. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini shakllantirish

8. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini shakllantirish uchun tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvallari asosida aniqlangan qurilishda eng ko'p foydalaniladigan qurilish materiallari (keyingi o'rinlarda qurilish materiallari) to'g'risidagi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardan tashkil topgan:

- a) boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari: MSTning "B" seksiyasi 08 raqamli mahsulot turi;

b) yog‘och hamda yog‘och va po‘kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to‘qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar: MSTning “C” seksiyasi 16 raqamli mahsulot turi;

d) Neftni qayta ishlash mahsulotlari: MSTning “C” seksiyasi 19.2 raqamli mahsulot turi;

e) bo‘yoqlar, laklar, va shu kabi sirtlarga suriluvchi bo‘yoq moddalar, bosmaxona bo‘yoqlari va mastikalar: MSTning “C” seksiyasi 20.3 raqamli mahsulot turi;

f) plastmassa plitalar, listlar, quvurlar va profillar: MSTning “C” seksiyasi 22.21 raqamli mahsulot turi;

g) plastmassadan qurilish uchun buyumlar: MSTning “C” seksiyasi 22.23 raqamli mahsulot turi;

h) shisha va shisha buyumlar: MSTning “C” seksiyasi 23.1 raqamli mahsulot turi;

i) o‘tga chidamli buyumlar: MSTning “C” seksiyasi 23.2 raqamli mahsulot turi;

j) keramik qurilish materiallari: MSTning “C” seksiyasi 23.3 raqamli mahsulot turi;

k) boshqa chinni va keramik buyumlar: MSTning “C” seksiyasi 23.4 raqamli mahsulot turi;

l) sement, ohak va gips: MSTning “C” seksiyasi 23.5 raqamli mahsulot turi;

m) beton, gips va sementdan ishlangan buyumlar: MSTning “ C ” seksiyasi 23.6 raqamli mahsulot turi;

n) asosiy qora metallar: temir, cho‘yan, po‘lat va temir qotishmalar: MSTning “C” seksiyasi 24.1 raqamli mahsulot turi;

o) po‘latdan quvurlar, trubkalar va g‘ovak profillar, ularning fittinglari: MSTning “C” seksiyasi 24.2 raqamli mahsulot turi;

p) qurilish uchun metall konstruksiyalar va buyumlar: MSTning “ C ” seksiyasi 25.1 raqamli mahsulot turi;

q) elektr simlari va elektr simlari uchun moslamalar: MSTning “ C ” seksiyasi 27.3 raqamli mahsulot turi;

m) elektr yoritish uskunalari: MSTning “C” seksiyasi 27.4 raqamli mahsulot turi;

m) elektr energiyasi: MSTning “D” seksiyasi 35.11 raqamli mahsulot turi.

9. Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvallari asosida har bir qurilish material bo'yicha “Qurilish” faoliyatida oraliq talab qiymatini jami foydalanilgan resurslar qiymatiga bo'lish orqali aynan qurilish faoliyatida foydalaniladigan qismi ulushi aniqlanadi:

$$S_i = \frac{C_i}{R_i} \times 100 \%$$

bu yerda:

S_i – i turdagi qurilish materiallari bo'yicha aynan qurilish faoliyatida foydalaniladigan qismi ulushi, foizda;

C_i – i turdagi qurilish materiallari bo'yicha “Qurilish” faoliyatida oraliq talab qiymati;

R_i – i turdagi qurilish materiallari bo'yicha jami foydalanilgan resurslar qiymati.

Qurilish materiallarining qurilish faoliyatida foydalaniladigan qismi ulushi hisoblash namunasi 2-ilovada keltirilgan.

10. Har bir qurilish material bo'yicha O'zbekistonda ishlab chiqarilgan hajmga import qilingan hajmni qo'shib va eksport qilingan hajmni ayirib tashlagan holda yalpi hajm aniqlanadi:

$$G_i = P_i + I_i - E_i$$

bu yerda:

G_i – i turdagi qurilish materiallari bo'yicha yalpi hajm;

P_i – i turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmi;

I_i – i turdagi qurilish materiallarini importi;

E_i – i turdagi qurilish materiallarini exporti.

Qurilish materiallari yalpi hajmini hisoblash misoli 3-ilovada keltirilgan.

11. Qurilish faoliyatida foydalanilgan jami qurilish materiallari qiymati har bir qurilish material yalpi hajmini aynan qurilishda foydalaniladigan qismi ulushiga ko'paytirib, yuzga bo'lish hamda ularni yig'indisi orqali hisoblanadi:

$$T = \sum_{i=1}^n \frac{G_i \times S_i}{100 \%}$$

bu yerda:

T – foydalanilgan qurilish materiallari qiymati;

G_i – i turdagi qurilish materiallari yalpi hajmi;

S_i – i turdagi qurilish materiallari bo'yicha aynan qurilish faoliyatida foydalaniladigan qismi ulushi, foizda.

12. Hisoblangan yillik qurilish faoliyatida foydalanilgan jami qurilish materiallari qiymatini shu yil uchun aniqlashtirilgan yillik statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmiga bo'lish orqali qurilish materiallari hamda kichik korxona va mikrofirmalar qurilish ishlari hajmi o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$K_{kb} = \frac{T}{V_{kb}}$$

bu yerda:

K_{kb} – qurilish materiallari hamda kichik korxona va mikrofirmalar qurilish ishlari hajmi o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyenti;

T – foydalanilgan qurilish materiallari qiymati;

V_{kb} – kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi.

Masalan: 2022-yil uchun qurilish materiallari yalpi hajmi 26 158 819 186 ming so'mni, 2022-yil uchun statistika hisoboti ma'lumotlari asosida hisoblangan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 68 817 170 979 ming so'mga bo'lish orqali bog'liqlik koeffitsiyenti topiladi:

$$26\,158\,819\,186 / 68\,817\,170\,979 = 0,380$$

Demak, bog'liqlik koeffitsiyenti 0,380 ni tashkil etadi.

13. Yillik statistik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan mazkur qurilish materiallari hajmi va kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyenti oylik davriylikda qurilish materiallari hajmiga ko'paytirgan holda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini hisob-kitob qilishda foydalaniladi.

14. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini baholash joriy hisobot davridagi qurilish materiallari yalpi hajmini oxirgi hisoblangan yillik bog'liqlik koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Masalan: 2023- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish materiallari yalpi hajmi 26 042 280 267 ming so'mni tashkil etib, uni bog'liqlik koeffitsiyentiga

(0,380) bo‘lib, 2023-yil yanvar-oktabr oylari uchun kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 67 596 766 250 ming so‘mni tashkil etishi aniqlanadi:

$$26\,042\,280\,267 \times 0,380 = 67\,596\,766\,250$$

15. Joriy hisobot davri uchun hisoblangan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi oxirgi yillik aniqlashtirilgan hisobot ma’lumotlari hamda mikrofirma va kichik korxonalarining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida hududlar, iqtisodiy faoliyat turlari, mulkchilik shakllari va ish turlari bo‘yicha taqsimlanadi. Shartli hisoblash namunasi 4 va 5-ilovalarda keltirilgan.

16. Ommaviy axborot vositalari va boshqa ma’lumotlar asosida hisoblangan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmiga tuzatishlar kiritilishi mumkin.

7- bob. Yakuniy qoidalar

17. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan ma’lumotlar manbalari


1. Система национальных счетов – 2008//Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций, Всемирный банк //Нью-Йорк, 2012.

2. Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ 4.01.16-09) “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 16-dekabrda 56-son qarori bilan tasdiqlangan “Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilishi jadvallarini tuzish bo‘yicha uslubiy nizom”.

“Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik baholash
bo'yicha uslubiy nizom” ga
1-ILOVA

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini shakllantirish sxemasi



“Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik
baholash bo‘yicha uslubiy nizom” ga
2-ILOVA

2020-yil uchun qurilish materiallarining qurilish faoliyatida foydalaniladigan qism ulushini hisoblash bo‘yicha shartli namuna

	“Qurilish” faoliyatida oralik talab qiymati, mln.so‘m	Jami foydalanilgan resurslar qiymati, mln.so‘m	Qurilish faoliyatida foydalaniladigan qism ulushi, % da
A	1	2	3=2/3*100
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	2 028 472,6	3 110 039,4	65,2
Yog‘och hamda yog‘och va po‘kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to‘qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar	3 077 097,6	7 964 116,8	38,6
Neftni qayta ishlash mahsulotlari	1 301 411,1	29 128 837,8	4,5
Bo‘yoqlar, laklar, va shu kabi sirtlarga suruluvchi bo‘yoq moddalar, bosmaxona bo‘yoqlari va mastikalar	989 221,9	3 190 191,9	31,0
Plastmassa plitalar, listlar, quvurlar va profillar	1 369 478,5	5 525 027,1	24,8
Plastmassadan qurilish uchun buyumlar	1 235 782,8	1 796 742,2	68,8
Shisha va shisha buyumlar	605 181,5	2 775 566,0	21,8
O‘tga chidamli buyumlar	614 840,8	778 694,6	79,0
Keramik qurilish materiallari	1 774 256,0	2 316 332,0	76,6
Boshqa chinni va keramik buyumlar	171 303,6	606 616,0	28,2
Sement, ohak va gips	6 893 204,2	9 150 909,4	75,3
Beton, gips va sementdan ishlangan buyumlar	7 054 248,1	7 539 282,7	93,6
Asosiy qora metallar: temir, cho‘yan, po‘lat va temir qotishmalar	2 286 334,0	19 138 405,4	11,9
Po‘latdan quvurlar, trubkalar va g‘ovak profillar, ularning fittinglari	2 785 796,1	5 498 064,1	50,7
Qurilish uchun metall konstruksiyalar va buyumlar	3 765 687,0	9 674 670,9	38,9
Elektr simlari va elektr simlari uchun moslamalar	1 340 879,9	3 264 640,3	41,1
Elektr yoritish uskunalari	191 604,6	1 082 536,7	17,7
Elektr energiyasi	277 253,3	17 496 815,3	1,6

“Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik
baholash bo‘yicha uslubiy nizom” ga
3-ILOVA

2022-yil uchun qurilish materiallari yalpi hajmini hisoblash bo‘yicha shartli namuna

	Ishlab chiqarish hajmi	Import	Eksport	Qurilish faoliyatida foydalaniladigan qism ulushi, % da	Qurilish materiallari yalpi hajmi ming so‘m
A	1	2	3	4	5=(1+2-3)*4/100
Jami	x	x	x	x	26 158 819 186
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	931 565 554	561 688 049	222 955 959	65,2	593 633 490
Yog‘och hamda yog‘och va po‘kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to‘qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar	217 122 735	1 027 456 312	142 986 041	38,6	571 910 384
Neftni qayta ishlash mahsulotlari	17 238 445 542	5 838 512 195	674 642 701	4,5	1 321 267 221
Bo‘yoqlar, laklar, va shu kabi sirtlarga suruluvchi bo‘yoq moddalar, bosmaxona bo‘yoqlari va mastikalar	282 340 143	531 490 834	133 787 099	31,0	256 639 915
Plastmassa plitalar, listlar, quvurlar va profillar	1 660 645 988	1 444 453 774	157 578 912	24,8	1 300 135 099
Plastmassadan qurilish uchun buyumlar	159 141 018	713 812 126	254 850 733	68,8	359 563 076
Shisha va shisha buyumlar	1 358 193 178	462 640 464	275 996 566	21,8	547 288 133
O‘tga chidamli buyumlar	88 961 696	100 413 241	23 070 367	79,0	67 738 430
Keramik qurilish materiallari	813 000 688	1 076 592 404	761 509 867	76,6	959 232 075
Boshqa chinni va keramik buyumlar	60 697 527	98 455 128	90 481 408	28,2	30 537 781
Sement, ohak va gips	6 290 614 830	2 290 745 918	151 268 145	75,3	6 187 785 584
Beton, gips va sementdan ishlangan buyumlar	2 168 040 119	2 048 876 463	425 405 523	93,6	3 282 943 227
Asosiy qora metallar: temir, cho‘yan, po‘lat va temir qotishmalar	12 229 974 272	7 901 252 429	1 948 948 129	11,9	3 151 981 668
Po‘latdan quvurlar, trubkalar va g‘ovak profillar, ularning fitinglari	3 409 187 101	3 977 701 517	133 822 542	50,7	2 799 536 990
Qurilish uchun metall konstruksiyalar va buyumlar	3 063 464 915	3 347 399 088	606 162 846	38,9	3 724 218 083
Elektr simlari va elektr simlari uchun moslamalar	1 602 700 596	1 066 736 056	2 089 224 562	41,1	252 434 777
Elektr yoritish uskunolari	473 838 355	447 973 421	142 739 876	17,7	157 985 014
Elektr energiyasi	22 192 611 413	3 214 587 338	14 208 125	1,6	593 988 236

“Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik
baholash bo‘yicha uslubiy nizom” ga
4-ILOVA

**2023-yil yanvar-oktabr oylari uchun hisoblangan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini hududlar va MST
boyicha taqsimlash shartli namunasi**

ming so‘m

Hududlar	2022-yil hisobot ma'lumotlari asosida hududlar tarkibi	2023-yil yanvar- oktabr oylari uchun hisoblangan hajm	2022-yil hisobot ma'lumotlari asosida olingan ulush, %			2023-yil yanvar-oktabr oylari uchun hajm		
			Bino va inshootlar qurish	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari	Bino va inshootlar qurish	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
A	1	2	3	4	5	6=2x3/100	7=2x4/100	8=2x5/100
O‘zbekiston Respublikasi	100	67 596 766 250	71,492	21,132	7,376	48 326 140 941	14 284 431 286	4 986 194 023
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5,220	3 528 284 015	67,955	18,317	13,728	2 397 659 741	646 272 905	484 351 369
Andijon	6,746	4 559 922 397	70,854	24,112	5,034	3 230 906 933	1 099 483 050	229 532 414
Buxoro	6,446	4 357 131 029	71,014	23,997	4,989	3 094 182 130	1 045 583 362	217 365 537
Jizzax	3,642	2 462 087 769	63,462	26,385	10,153	1 562 493 151	649 612 921	249 981 698
Qashqadaryo	5,528	3 736 474 340	61,445	33,930	4,625	2 295 893 192	1 267 768 636	172 812 512
Navoiy	4,195	2 835 833 859	69,778	20,254	9,969	1 978 782 953	574 360 215	282 690 691
Namangan	5,467	3 695 436 192	78,339	17,031	4,630	2 894 975 234	629 369 149	171 091 810
Samarqand	8,416	5 688 761 744	72,506	19,547	7,947	4 124 714 956	1 111 967 350	452 079 438
Surxondaryo	6,101	4 124 294 530	61,314	35,713	2,974	2 528 763 185	1 472 892 773	122 638 573
Sirdaryo	3,252	2 198 019 003	68,299	27,434	4,267	1 501 221 515	603 010 832	93 786 656
Toshkent	9,173	6 200 399 358	79,089	15,170	5,742	4 903 812 303	940 587 337	355 999 718
Farg‘ona	7,222	4 882 148 335	68,713	26,263	5,024	3 354 684 839	1 282 184 882	245 278 613
Xorazm	3,448	2 330 496 885	73,039	24,167	2,794	1 702 167 356	563 206 018	65 123 511
Toshkent sh.	25,145	16 997 476 795	61,791	34,926	3,283	10 502 837 768	5 936 609 830	558 029 197

“Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik
baholash bo‘yicha uslubiy nizom” ga
5-ILOVA

**2023-yil yanvar-oktabr oylari uchun hisoblangan kichik korhona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini mulkchilik
shakllariga taqsimlash hamda yangi qurilishlar bo‘yicha hajmni hisoblash shartli namunasi**

Hududlar	2023-yil yanvar- oktabr oylari uchun hisoblangan hajm	2022-yil hisobot ma’lumotlari asosida olingan ulush, %		2023-yil yanvar-oktabr oylari uchun hajm		2022-yil hisobot ma’lumotlari asosida yangi qurilishlar ulushi, %	2023-yil yanvar- oktabr oylari uchun hajm
		Nodavlat mulk	Davlat mulki	Nodavlat mulk	Davlat mulki		
A	1	2	3	4=1x2/100	5=1x3/100	6	7=1x6/100
O‘zbekiston Respublikasi	67 596 766 250	96,903	3,097	65 503 137 321	2 093 628 929	63,049	42 618 983 484
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 528 284 015	99,882	0,118	3 524 110 308	4 173 707	68,014	2 399 731 635
Andijon	4 559 922 397	94,696	5,304	4 318 048 052	241 874 344	61,429	2 801 100 653
Buxoro	4 357 131 029	97,711	2,289	4 257 403 915	99 727 114	66,261	2 887 063 605
Jizzax	2 462 087 769	92,471	7,529	2 276 726 018	185 361 751	68,031	1 674 973 930
Qashqadaryo	3 736 474 340	96,291	3,709	3 597 873 987	138 600 352	55,362	2 068 593 282
Navoiy	2 835 833 859	91,907	8,093	2 606 325 228	229 508 631	69,197	1 962 311 706
Namangan	3 695 436 192	94,390	5,610	3 488 123 554	207 312 638	57,091	2 109 767 674
Samarqand	5 688 761 744	91,057	8,943	5 180 033 139	508 728 605	68,700	3 908 194 795
Surxondaryo	4 124 294 530	99,992	0,008	4 123 969 814	324 716	83,611	3 448 360 611
Sirdaryo	2 198 019 003	95,759	4,241	2 104 800 477	93 218 525	72,697	1 597 892 902
Toshkent	6 200 399 358	99,325	0,675	6 158 571 651	41 827 707	66,063	4 096 199 291
Farg‘ona	4 882 148 335	97,639	2,361	4 766 880 813	115 267 521	56,803	2 773 202 548
Xorazm	2 330 496 885	90,229	9,771	2 102 793 568	227 703 317	61,529	1 433 932 406
Toshkent sh.	16 997 476 795	100,000	0,000	16 997 476 795	0	55,642	9 457 658 447